

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK:336.2 (575.1)

MAXMADUSTOV JALOL MAXMADUSTOVICH


**JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI UNDIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish
uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:
i.f.d., (DSc) prof. Eshov Mansur Po'latovich**

Toshkent -2022-yil



001
M-32

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....	12
1.1-§ O‘zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etilishining huquqiy va nazariy asoslari.....	12
1.2-§ Soliqqa tortish tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni joriy etilishining bosqichlari.....	30
1.3-§ Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillarshtirishda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari.....	47
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	57
II BOB. SOLIQ MA‘MURCHILIGIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI UNDIRISHNI AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	59
2.1-§ O‘zbekiston soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmining amaldagi holati tahlili.....	59
2.2-§ Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo‘yicha soliq imtiyozlarning amaldagi holati tahlili.....	80
2.3-§ Jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash asosida soliqlarni hisoblash va undirishning amaldagi holati tahlili.....	93
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	105
III JISMONIY SHAXSLARNING SOLIQLARINI UNDIRISHDA BOB. MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	108
3.1-§ O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning soliqlarini undirishda mavjud muammolar.....	108
3.2-§ Soliq ma‘murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari.....	125
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	134
XULOSA.....	136
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	139
ILOVALAR.....

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida byudjet-soliq siyosatini samarali amalga oshirish hamda iqtisodiy subyektlarni soliq dastaklari orqali rag'batlantirishda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning turli shakllari, jumladan, (savdo solig'i), daromad solig'i, meros va mulk solig'i, aksiz solig'i va boshqalardan keng foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari, soliq stavkalari va qoidalari mamlakatlar o'rtasida, hattoki ayrim holatlarda bir mamlakatning turli qismlarida katta farq qiladi. Masalan, "AQSHning aksariyat shtatlarida daromad solig'ining ba'zi shakllari undiriladi, ammo har bir shtatning daromad solig'i stavkasi 1 foizdan 13,3 foizgacha tebranishi mumkin. Bundan tashqari, 7 ta shtat (Alyaska, Florida, Nevada, Janubiy Dakota, Texas, Vashington va Vayoming)da umuman davlat daromad solig'i undirilmaydi va yana 2 ta shtat (Nyu-Xempshir va Tennessi)da foizlar va dividend daromadlari soliqqa tortilmaydi"¹. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish byudjet-soliq siyosatining asosiy masalalaridan biri sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Jahonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasida qator ilmiy yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish manbalarini aniqlash, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliqqa tortishning xalqaro standartlarini qo'llash, mazkur jarayonlar monitoringini yuritish, avtomatlashtirish, dasturlash va raqamlashtirish orqali hisob va nazorat samaradorligini oshirish, soliqqa tortishning zamonaviy usullarini joriy etish, daromadlar deklaratsiyasini tashkil etish, soliq orqali tartibga solish vosita va usullari, jismoniy shaxslarning pul daromadlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash uslubiyotini takomillashtirish bu boradagi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida davlatning iqtisodiy faoliyatini faollashtirish hamda barqaror soliq tizimini tarkib toptirishda

¹ <https://www.irs.gov/government-entities/federal-state-local-governments>